

**Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetida “Русский язык на пространстве СНГ и в мире” mavzusidagi xalqaro anjuman
HISOBOTI**

Samarqand davlat universitetida 2025-yil 19-aprel kuni “Русский язык на пространстве СНГ и в мире” mavzusidagi xalqaro anjuman o‘z ishini boshladi. Konferensiyani Samarqand davlat universiteti prorektori A.Axatov ochib berdi. ilmiy-amaliy hamkorlik umumbashariy rivojlanishni yangi yuqori darajaga ko‘tarishini alohida ta’kidladi va konferensiya ishiga muvaffaqiyat tiladi.



Anjuman rus va umumiy tilshunoslik kafedrasining 85 yilligiga bag‘ishlandi. Anjumanda respublikamizning turli ta’lim muassasalaridan professor-o‘qituvchilar hamda talaba magistrlar ishtirok etdi. Anjuman yalpi yig‘ilishi tugagach shubalarda davom etdi. “MDH mamlakatlarida rus tilining kommunikativ ahamiyati”, “O‘zbekiston hududida rus tilining ijtimoiy-lisoniy mavqei”, “Rus tili — xalqaro muloqot vositasi sifatida, MDH hududida ikki tillilik jarayonining rivojlanishi”, “Globalizatsiya sharoitida rus tilining raqobatbardoshligi”, “MDH davlatlarida rus tilini o‘qitishning zamonaviy metodlari”, “Rus tilining tarixiy taraqqiyoti va MDH davlatlaridagi o‘rni”, “MDHdagi ko‘p millatli jamiyatlarda til siyosati”, “O‘zbek-rus tillari o‘rtasidagi lingvistik aloqalar va o‘zaro ta’sir”, “MDH mamlakatlarida rus tilining huquqiy maqomi”, “Rus tilining yoshlar orasidagi ommabopligi: ijtimoiy tadqiqot”, “Migratsiya jarayonlarida rus tilining o‘rni”, “Rus tili va madaniy diplomatiya: MDH misolida” mavzularida ma’ruzalar ma’ruzachilar tomonidan o‘qib eshittirildi.

**Ilmiy ishlar va innovatsiyalar
bo‘yicha prorektor**



H.Xushvaqtoev

